



GLOBALASHUV DAVRIDA SHAXS RIVOJLANISHIDA TEMPERAMENT VA UNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

ADPI Filologiya fakulteti 102-guruh talabasi

Ergasheva Maxbuba Yo`ldoshali qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida temperamentning o'рни va uning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Temperament turlari, ularning inson faoliyatiga ta'siri hamda zamonaviy jamiyatda shaxsning moslashuv jarayonidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, temperament masalasiga oid qadimgi va zamonaviy psixolog olimlarning - Gippokrat, Galen, va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari solishtirma yondashuvda ko'rib chiqilgan. Maqolada temperament turlarining o'ziga xos psixofiziologik xususiyatlari, ularning shaxs rivoji va faoliyatiga ta'siri, tarbiya va ta'lim jarayonida temperamentni hisobga olishning amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, shaxs rivojlanishi, temperament, psixologiya, individual xususiyatlar, sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik

Аннотация: В данной статье анализируется роль темперамента и его психологических характеристик как одного из важных факторов развития личности в условиях глобализации. Научно освещены типы темперамента, их влияние на человеческую деятельность и значение личности в процессе адаптации к современному обществу. Также в сравнительном подходе рассмотрены научные взгляды античных и современных психологов – Гиппократ, Галена и других исследователей – на вопрос темперамента. В статье обосновываются специфические психофизиологические характеристики типов темперамента, их влияние на развитие личности и деятельность, а также практическое значение учета темперамента в процессе воспитания и образования.



Ключевые слова: глобализация, развитие личности, темперамент, психология, индивидуальные характеристики, сангвинический, холерический, флегматический, меланхолический

Abstract: *This article analyzes the role of temperament and its psychological characteristics as one of the important factors in personal development in the context of globalization. The role of temperament in human behavior, the speed of emotional reactions, and adaptation to the social environment is analyzed on a scientific basis. Also, the scientific views of ancient and modern psychologists - Hippocrates, Galen, and other researchers - on the issue of temperament are considered in a comparative approach. The article substantiates the specific psychophysiological characteristics of temperament types, their impact on personality development and activity, and the practical importance of taking temperament into account in the process of upbringing and education.*

Keywords: *globalization, personal development, temperament, psychology, individual characteristics, sanguine, choleric, phlegmatic, melancholic*

Bugungi kunda globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha jabhalariga, xususan, inson shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot oqimining tezlashuvi, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi insonning psixologik xususiyatlarini, jumladan temperamentini chuqur o'rganishni talab etadi. Shaxs rivojlanishida temperament muhim biologik va psixologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Inson psixologiyasi murakkab tizim bo'lib, uning shakllanishi biologik, ijtimoiy va shaxsiy omillar bilan belgilanadi. Shaxsning ruhiy jarayonlari, hissiyotlari va xulq-atvori, xarakteri avvalo, temperament bilan chambarchas bog'liqdir. Temperament insonning tug'ma, nerv tizimining kuchi, muvozanati va harakatchanligiga asoslangan psixik xususiyati hisoblanadi. U shaxsning tashqi olamga munosabati, faoliyatga bo'lgan yondashuvi hamda ijtimoiy hayotdagi o'rnini belgilab beradi. Temperament lotincha "temperamentum" degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi "aralashma" degan manoni anglatadi. Temperament



to'qrisidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gippokrat (V asrda) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmoqda. Gippokrat ta'kidlashicha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (sharbat) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunoncha chole), qon (latincha sanguis yoki sanguinis), qora o't (yunoncha melas "qora", chole "o't"), balg'am (yunoncha "pxlegma") kabilardan iboratdir.

- Qon (sanguis) - sanguinik temperament.
- Sariq o't (chole) - xolerik temperament.
- Balg'am (phlegma) - flegmatik temperament.
- Qora o't (melanchole) - melancholik temperament

Temperament 4 tipga ajratib o'rganiladi: Quyida barcha temperament vakillarini izchil o'rganib chiqamiz. Shuni aytish joizki, har bir inson qaysidur temperament egasi yoki unda faqat bir temperamentga mansub bo'lmaydi. Shunchaki bu to'rt turidan biri ustunligiga qarab ularni shu turga qarashli deyish mumkin. Xolerik - tipdagi shaxs odatda tez hayajonlanadigan, serharakat, hissiy reaksiyalari kuchli va kayfiyati tez o'zgaruvchan, jahldor juda harakatchan va tavakkalchi bo'ladilar. Xolerik temperamentli insonlar energetik, jo'shqin, faol va tezkor bo'ladilar. Xolerikning mehnat salohiyati yuqori bo'lsa-da, u ko'pincha ishni jo'shqinlik bilan boshlab, tez orada qiziqishi so'nib, uni yarim yo'lda qoldirib qo'yishi mumkin. Uning faoliyati barqaror emas: ba'zan nihoyatda shiddat bilan ishlasa, ba'zan esa sekinlashib qoladi. Sabrlilik, vazminlik va bardoshlilik zarur bo'lgan jarayonlarda xolerik odatda qiynaladi, chunki uning tabiiy holati tezkorlik va kuchli hissiylikka moyildir. Xolerikning jahlini chiqarish juda oson. Bu tip vakillari tez yonib, tez o'chadilar. Xolerik ham kuchli tipga kiradi. Ularning yoqtirgan ranglari ham kuchli, ta'sirchan va jonli bo'ladi. Xolerik temperamentli insonlar ko'pchiliklari (qizil, to'q sariq, sariq va qora kabi to'q, murakkab) ranglarni yoqtiradilar. Ular juda intiluvchan har sohada o'zlarini sinab ko'rishga uddaburon bo'ladilar. Xoleriklarning yetakchiligi ham atrofidagilarga kuchli ta'sir qiladi va ruhlantirishga ham moyil bo'ladilar. Maqsad sari ham kuchli intiladilar, ular ishni tez boshlab, o'zlarini tez ko'rsatishga odatlangan bo'ladilar. Ammo ular tashqi olamdan kelayotgan yomon (negativ) so'z yoki tanbehlarga uzoq vaqt bardosh



qilmaydilar. O'zlarini yerga urmaydilar va o'z "men" larini kuchli himoya qiladilar. Sangvinik - quvnoq, chaqqon, tirishqoq va ta'sirchan odam. Sangvinik odatda yangi sharoit va odamlar bilan tez til topisha oladi, tashqi ta'sirlarga faol javob qaytaradi. U suhbatga kirishuvchan, so'zga chechan va muloqot jarayonida yuz ifodalari hamisha jonli bo'ladi. O'zi yoqtirgan faoliyatga ishtiyoq bilan sho'ng'iydi, biroq uzoq davom etadigan, muntazamlik talab qiladigan ishlarni davom ettirishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Sangvinikni kuldirish oson. Sangvinik kuchli tipga kiradi.

Flegmatik tipdagi shaxs odatda sokin, mulohazali va o'z his-tuyg'ularini nazorat qila oluvchi insonlardir. U ko'p gapirmaydi, ishni shoshilmasdan, sekin o'ylab boshlaydi va boshlagan ishini oxirigacha yetkazishga harakat qiladi. Murakkab yoki konfliktli vaziyatlarda ham u o'ziniidora qila oladi, hissiyotlarga berilmaydi. Agar sangvinik tez alangalanib, tez soviydigan bo'lsa, flegmatik asta-sekin jonlanib, uzoq muddat barqaror harakatdanamoyon bo'ladi. Lekin tezkor javob yoki chaqqonlik talab etiladigan vaziyatlarda u ba'zan sekinlik qilishi mumkin. Biroq matonat, qat'iyat va sabr-e'tibor talab etiladigan jarayonlarda aynan flegmatik ko'proq muvaffaqiyatga erishadi. Flegmatikni kuldirish ham, jahlini chiqarish ham qiyin. Flegmatik kuchli tipga kiradi. Melanxolik - g'amgin, zaif, yig'loqi va jur'atsiz odam. Melanxolik odatda nozik qalbli, tez ranjiydigan va o'ziga ishonchi sustroq insonlardir. U murakkab vazifalarni bajarishga shoshilmaydi va ko'pincha qat'iy qaror qabul qilishda qiynaladi. Mayda to'siqlarning o'zi unga katta muammo bo'lib tuyulishi mumkin, shu sababli u ko'pincha kurashishdan voz kechadi. Bunga qarama-qarshi ravishda sangvinik va flegmatik qiyinchiliklarni nisbatan sokin va oson yengib o'tsa, xolerik esa ularni kuchli iroda va keskinlik bilan tezda bartaraf etishga intiladi. Melanxolikda ijobiy his-tuyg'udan salbiy his-tuyg'ular ustunlik qiladi. Melanxolik - temperamentning kuchsiz tipi hisoblanadi. Galen ham Gippokrat nazariyasini rivojlantirib, temperamentni organizm va nerv tizimi bilan bog'lab o'rgangan. Galen 13 ta temperamentni ajratib ko'rsatdi. Keyinchalik esa uni qisqartirishgan. Gippokrat-Galenning temperamentlar nazariyasi hali ham san'at, fan va adabiyotga ta'sir qiladi. Insonning biror voqea yoki hodisaga hayajonlanishi, tez



yoki sust harakat qilishi, hissiyotlarni qanday ifodalash darajasi va umumiy ruhiy faoliyatining dinamikasini temperamenti belgilaydi. Temperament tugʻma va oʻzgarmasdir. Har bir temperament vakillari- ning ijobiy va salbiy taraflari bor. Ijtimoiy muhit ishtirokchilari esa shaxsga turlicha taʼsir kuchini koʻrsatadilar. Ammo har qaysi temperament turgʻun va barqarordir. Bu xususiyatlarning insonning mativlari, psixik holatlari, maqsad va faoliyatlarida namoyon boʻladi. Psixologiyada temperamentlarni tahlil qilayotganimizda temperament xususiyatlari jumlasiga ham eʼtibor qaratamiz. Temperament xususiyati- yakka shxsnning psixik holati tizimini belgilovchi ruhiyatning oʻzgarmas, individual hususiyatidir. Ushbu xususiyatlar turli shakl va maʼnoga ega boʻlgan motiv (harakatga undovchi kuch)larda, psixik holatlarda, maqsadlarda, faoliyatlarda nisbatan oʻzgarmas temperamentni belgilovchi koʻrsatkichni belgilab beradi. Globallashuv davrida shaxs rivojlanishida temperament muhim oʻrin egallaydi. U insonning psixologik barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va kasbiy muvaffaqiyatiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun zamonaviy taʼlim tizimida talabalarning individual temperament xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Temperament shaxsning dunyoni qanday qabul qilishi, hissiyotlarga qay darajada berilishi, ijtimoiy muhitga qanchalik tez moslasha olishi va faoliyat jarayonida oʻzini qanday tutishini belgilaydi. Har bir temperament turi oʻzining takrorlanmas ruhiy holatiga ega: sangvinik - quvonch va hayotiylik timsoli, xolerik - kuch va tashabbus ramzi, flegmatik - barqarorlik va vazminlik mezoni, melanxolik esa - nozik qalb va chuqur his-tuygʻular koʻrinishidir. Shu bois, temperamentni oʻzgartirish emas, balki uni tushunish, qabul qilish va toʻgʻri yoʻnaltirish muhimdir. Insonning tabiiy psixologik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning ijobiy tomonlarini kuchaytirish hamda salbiy xususiyatlarni asta- sekin boshqarishni oʻrgatish - tarbiya va pedagogik jarayonning asosiy vazifalaridan biridir. Temperamentni anglagan inson oʻzini anglaydi; oʻzini anglagan inson esa oʻz hayotini ongli ravishda boshqarishni oʻrganadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev.E. - Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma II -kitob Toshkent - 2002
2. Baratov. SH. R, Olimov.L.Y va bosh...- Psixologiya nazariyasi va tarixi. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent-2019.
3. Kleynmen.P.-Psixologiya 101-"Hamroh books", "Qalam nashr". Toshkent.2023
4. Xaydarov. F.I. Xalilova. N.I.- Umumiy psixologiya. Toshkent. 2010
5. Д. Д. Ориббоева, М. М. Адашалиева Вопросы внедрения и развития инклюзивного образования в странах центральной азии // «Ёш олимлар ахборотномаси» - «Вестник молодых ученых». 2025. №. URL:
6. Nurullo o'g'li, A. A. (2023). Sharq mutafakkirlarining asarlarida psixodiagnostikaga doir qarashlari. Тараққиёт, 13. 2023.
7. Вахобова О'Т (2024). Globallashuv sharoitida axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirining psixologik jihatlari. Современное образование (Узбекистан), (12(145)),46-51.
8. O'gilxon T, V. (2023). Axborot muhiti yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirini tadqiq etishning metodik jihatlari. Современное образование (Узбекистан), (11 (132)), 15-22